



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN SHAHAR KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - noyabr

VI-52-81-6-91-K/23

Namangan shahar hokimligi

Namangan shahar mahalliy budjeti 2023-yil to‘qqiz oyi yakuni bilan daromadlari va xarajatlarining ijrosi haqida

Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining hisobotiga asosan: Namangan shahar bo‘yicha Davlat budjeti daromadlari (*mahalliy*) 2023-yil **to‘qqiz oylik** uchun prognoz ko‘rsatkichlari **389,7 mlrd. so‘m** miqdorida belgilangan bo‘lib, haqiqatda **396,6 mlrd. so‘mga** yoki **101,8 foizga** bajarildi natijada, budjetga qo‘shimcha ravishda **6,9 mlrd. so‘m** mablag‘lar tushumi ta‘minlandi.

Namangan shahar bo‘yicha 2023-yil **III-chorak** uchun budjet daromadlari prognozi ko‘rsatkichlari **132,9 mlrd. so‘m** miqdorida belgilangan bo‘lib, haqiqatda **129,9 mlrd. so‘m** yoki **97,7 foizga** natijada **3,4 mlrd. so‘mga** kam bajarildi.

Joriy yilning **to‘qqiz oyligida** shahar mahalliy budjeti ijrosi davomida jami **8,3 mlrd. so‘m** qo‘shimcha manba shakllantirilib, hudud ixtiyorida qoldirildi.

Belgilangan prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilmasligi o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, Farmoyishlari va viloyatga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlarida ko‘zda tutilgan tadbirlarga hamda Davlat dasturlari, Hukumat bayonnomalari bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Namangan shahar mahalliy budjeti xarajatlarining 2023-yil **to‘qqiz oylik**

uchun aniqlangan rejasi **746,7 mlrd. so‘m** etib belgilangan bo‘lib, mahalliy budjet xarajatlari **742,2 mlrd. so‘m** ijro etildi.

Xususan, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari uchun aniqlangan reja ko‘rsatkichlari **568,4 mlrd. so‘mga** belgilangan bo‘lib, haqiqatda **556,5 mlrd. so‘m** yoki **97,6 foizga** moliyalashtirildi. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi **74,9 foizni** tashkil etdi.

Jumladan,

- xalq ta’limi sohasi **24,3 mlrd. so‘mga** (92,7 %);
- maktabgacha ta’lim sohasi **38,3 mlrd. so‘mga** (95,1 %);
- sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha **196,7 mlrd. so‘mga** (96,7 %);
- madaniyat sohasi bo‘yicha **2,9 mlrd. so‘mga** (91,9 %);
- sport sohasi bo‘yicha **14,7 mlrd. so‘mga** (99,3 %);
- ijtimoiy nafaqalar **261,3 mlrd. so‘m** (99,7 %)ga moliyalashtirilishi ta’minlandi.

Shuningdek,

- iqtisodiyot xarajatlari sohasiga **71,1 mlrd. so‘m** (95,7 %);
- davlat boshqaruvi va o‘zini o‘zi boshqarish organlari xarajatlari **41,0 mlrd. so‘m** (96,1 %);
- fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘lari **47,0 mlrd. so‘m** (100 %);
- boshqa xarajatlar **13,9 mlrd. so‘m** yoki **99,9 %ga** ijro etildi.

Xarajatlarning **72,4 foizi** yoki **537,8 mlrd. so‘m** qismi **1 va 2-guruh** ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar hamda yagona ijtimoiy to‘lov xarajatlariga va **28,0 foizi** yoki **204,2 mlrd. so‘m** qisimi **4-guruh** boshqa xarajatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13 dekabrda “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida” 2017-yil 13-dekabrdagi PF-5283-son Farmoniga muvofiq, Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining shahar mahalliy budjeti 2023-yil to‘qqiz oyi yakuni bilan ijrosi haqidagi hisoboti eshitib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 27-moddasiga asosan, xalq deputatlari Namangan shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Namangan shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Mo‘minov hamda Namangan shahar soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Alimovning hisobotlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil to‘qqiz oyi yakuni bilan Namangan shahar mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlari ijrosi 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Namangan shahar hokimligi, hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilarning e‘tibori budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta‘minlash zarurligiga qaratilsin.

4. Hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilar budget jarayonining ochiqqligini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarga ma‘lumotlarni belgilangan tartibda joylashtirib borilishi ta‘minlasinlar.

5. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi, ijtimoiy soha tarmoq boshqarmalari bilan birgalikda ijtimoiy soha muassasalari uchun ajratilgan mablag‘larni to‘liq moliyalashtirilishi, jumladan, muassasalarning kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlash tadbirlari uchun ko‘zda tutilgan mablag‘larni to‘liq o‘zlashtirilishi va moliyalashtirilishini ta‘minlasin hamda ijrosini qat‘iy nazoratga olsin.

6. Namangan shahar soliq inspeksiyasiga:

budget daromadlari prognoz rejasini so‘zsiz oshirib bajarish;

budget daromadlari tushumini uzluksiz bir maromda undirilishi ta‘minlash;

mahalliy budjetga qo‘shimcha daromadlar tushumini ta‘minlash, soliq yig‘uvchanligini oshirish hamda boqimanda qarzdorliklarni keskin kamaytirish

yuzasidan zarur choralarni ko‘rish vazifalari topshirilsin.

7. Shahar hokimligi tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda budget daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta‘minlasinlar, hududning soliq solish bazasi kengaytirilishi va moliyaviy salohiyati mustahkamlanishi yuzasidan zaruriy chora-tadbirlar ko‘rsinlar, budget mablag‘laridan manzilli, maqsadli va samarali foydalanish;

- O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining, Toshkent shahri shahar budgetining, tumanlar va shaharlar budgetlarining qo‘shimcha manbalardan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida qabul qilinishi bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yilishida amaldagi qonunchilik talablariga qat‘iy rioya etilishini nazoratga olsinlar.

8. Namangan shahar hokimligining axborot xizmatiga Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta‘minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish maqsadida mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy saytiga joylashtirish vazifasi topshirilsin.

9. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda shahar soliq inspeksiyasi Xalq deputatlari shahar Kengashiga mahalliy budgetning ijrosi to‘g‘risida har chorakda hisobot berib borish tizimining davomiyligini ta‘minlasin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga topshirilsin.

Kengash raisi



G‘.Djamalov

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining
2023-yil 29-noyabrdagi
VI-52-81-6-91-K/23-son qaroriga
1-ilova

**2023-yil 9 oy yakuni bilan mahalliy budjeti daromadlari ijrosi to'g'risida
HISOBOT**

mln. so'm

T/r	Daromad turlari	9 oylik				shundan II-chorak			
		Reja	Ijro	Bajarilishi		Reja	Ijro	Bajarilishi	
				Farqi	Foizda			Farqi	Foizda
	JAMI	389 763	396 682	6 919	102%	132 974	129 926	-3 048	98%
1	Aylanmadan soliq	29 642	27 832	-1 809	94%	11 328	9 891	-1 437	87%
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	194 341	184 526	-9 815	95%	64 916	58 436	-6 480	90%
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	9 641	9 155	-486	95%	3 092	2 424	-668	78%
4	Aksiz solig'i ohirigi iste'molchiga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi	18 630	18 900	270	101%	8 753	7 834	-919	90%
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	31 369	41 512	10 142	132%	9 872	12 500	2 628	127%
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	17 095	15 452	-1 643	90%	6 360	4 965	-1 395	78%
6	Yuridik shaxslarning yer solig'i	29 583	33 438	3 855	113%	9 895	10 906	1 011	110%
7	Jismoniy shaxslarning yer solig'i	21 243	25 577	4 334	120%	6 765	8 811	2 046	130%
8	yagona yer solig'i			0	0%			0	0%

9	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	172	125	-47	73%	71	80	9	113%
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 798	5 932	-866	87%	2 183	2 204	21	101%
11	Mahalliy yig'imlar	28 382	28 918	536	102%	9 220	10 208	988	111%
12	Boshqa tushumlar	2 867	5 315	2 448	185%	519	1 667	1 148	321%

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining
2023-yil 29-noyabrdagi
VI-52-81-6-91-K/23-son qaroriga
2-ilova

**2023-yil 9 oylik Namangan shahar mahalliy budjeti xarajatlari ijrosi to'g'risida
HISOBOT**

mln so'm

T/p	Xarajatlar nomi	Aniqlangan reja	Haqiqatda ijro	bajarilishi	
				Farqi	%
	XARAJATLAR JAMI	746 781	742 180	-5 538	99%
I.	Ijtimoiy soha xarajatlari	549 716	539 683	-10 032	98%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Maktabgacha ta'lim	40 104	38 304	-1 799	96%
	Umumta'lim maktablari	25 565	24 275	-1 290	95%
	Sog'liqni saqlash	203 175	196 693	-6 482	97%
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	658	656	-2	100%
	Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	2 409	2 911	503	121%
	Sport	14 803	14 754	-49	-100%
	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	262 196	261 340	-856	100%
	Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga turarjoy sotib olish xarajatlari	0	0	0	0%
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	0	0	0	0%
	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	806	749	-58	93%

II. Iqtisodiyotga xarajatlar	68 946	71 135	2 189	103%
<i>shu jumladan:</i>				
Obodonlashtirish	59 640	62 546	2 906	105%
Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta‘mirlash xarajatlari	7 990	7 368	-623	92%
Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	0	0	0	0%
Veterinariya qo‘mitasi	1 316	1 222	-94	93%
III. Davlat boshqaruv organlarini saqlash	38 720	40 363	1 643	104%
<i>shu jumladan:</i>				
Davlat hokimiyat organlari	38 720	40 363	1 643	104%
Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash	6 566	6 352	-214	97%
Zaxira jamg‘armasi	6 478	5 918	-560	91%
Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘lari	46 214	47 056	842	102%
IV. Boshqa xarajatlar	30 142	31 674	1 531	105%
<i>shu jumladan:</i>				
Mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0	0	0	0%
Boshqa xarajatlar	342	2 619	2 277	766%
DXSH asosida ijtimoiy soha obyektlari isitish tizimini modernizatsiya qilish	19 370	17 580		
Budjetdan tashqari boshqa jamg‘armalarga beriladigan mablag‘lar	1 490	1 692	203	114%
Yoshlar daftariga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	2 435	2 856	421	117%

Ayollar daftariga kiritilgan ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	2 435	2 856	421	117%
Advokatlar xizmati	570	570	0	100%
Obod qishloq va Obod mahalla jamg'armasiga ajratiladigan mablag'lar	3 500	3 500	0	100%